

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹

2026- yil yanvar-may


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimidarivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026-yil yanvar-may oyida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **34 756,1** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,4** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **6 508,1** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-may oyida xizmatlar hajmi 28 248,0 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 111,5 % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-may oyiga nisbatan (**6 801,2** ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 412,9** ming so'mga yoki **114,3** % ga o'sib, **8 214,0** ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **26 099,0** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **75,1** % ini, jumladan **45,4** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹ 2025- yil yanvar-martl oyli hajmi va 2026- yil yanvar-mart oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	34 756,1	100,0	116,4
Farg'ona shahar	5 981,2	17,2	123,7
Qo'qon shahar	2 882,5	8,3	120,0
Quvasoy shahar	505,3	1,5	123,4
Marg'ilon shahar	1 794,8	5,2	117,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq tumani	1 023,9	2,9	118,0
Qo'shtepa tumani	548,3	1,6	116,8
Bag'dod tumani	498,9	1,4	117,0
Buvayda tumani	919,6	2,6	114,8
Beshariq tumani	547,0	1,6	119,6
Quva tumani	586,9	1,7	118,8
Uchko'prik tumani	890,7	2,6	117,3
Rishton tumani	624,9	1,8	119,1
So'x tumani	308,0	0,9	112,8
Toshloq tumani	635,3	1,8	118,7
O'zbekiston tumani	538,3	1,5	118,6
Farg'ona tumani	680,1	2,0	116,5
Dang'ara tumani	510,3	1,5	116,3
Furqat tumani	373,5	1,1	116,4
Yozyovon tumani	519,0	1,5	115,9

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Farg'ona shahrining yuqori ulushi (**17,2%**) Farg'ona shahri davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Farg'ona shahri rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-maydagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada

qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **20,4 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **2,5** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **20,9 %** ga (o'sishiga hissasi **3,2** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **10,3 %** ga (o'sishiga hissasi **2,5** band), savdo xizmatlari **18,2 %** ga (o'sishiga hissasi **5,0** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **17,8 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,7** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **11,7 %** ga (o'sishiga hissasi **0,2** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-may)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y	2026- y	
Xizmatlar – jami	28 248,0	34 756,1	116,4
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 065,2	1 345,5	117,8
moliyaviy xizmatlar	3 402,8	4 184,2	120,4
transport xizmatlari	4 127,5	5 236,1	120,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
	3 728,0	4 700,7	121,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	7 223,8	8 697,6	110,3
savdo xizmatlari	7 806,6	9 655,9	118,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	411,9	476,7	111,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	863,7	1 122,7	127,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	496,6	593,0	111,8
ijara xizmatlari	341,4	399,6	109,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	565,6	654,6	110,4
shaxsiy xizmatlar	876,2	1 073,0	113,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	131,8	161,5	109,0
boshqa xizmatlar	934,9	1 155,7	116,5

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-may oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari **15,1 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,0 %**, moliyaviy xizmatlar **12,0 %**, savdo xizmatlari **27,8 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,9 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,2 %** ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida transport xizmatlari **14,6 foiz**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,6 foiz**, moliyaviy

xizmatlar **12,0** foiz, savdo xizmatlari **27,6** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,8** foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,1** foiz ulushni tashkil etgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2026- yil yanvar-may, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **61,3** foizni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **104,8** foizga o'sgan.

2026- yilning yanvar-may oylida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarda** o'sish kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi **757,0** mlrd so'mga yoki **122,8** foizga o'sishi kuzatilgan.

Sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati
dinamikasi





2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (142,9 %)**, **pochta va kuryerlik xizmatlari (113,8 %) xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **97,9 %** ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-may oyida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **110,4 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektiga bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lovlar yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.



V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 150103, Farg'ona shahri,
Oq yo'l ko'chasi, 104 A-uy
Pochta: fer@stat.uz
Tel.: 73-241-98-82 (61)

